
TUMANIMIZ BOSH IMOM XATIBIGA FAXRIY YORLIQ TOPSHIRILDI



Farg'ona viloyati bosh imom-xatibi U.Abdullayev Qo'shtepa tumanidagi "Muborak" jome masjidiga tashrif buyurib, mazkur masjiddagi juma namozida qatnashdi. Namozxonlarga "Mazhab - Qur'on va hadisning mahsulidir" mavzusida ma'ruza qildi.

Suhbat davomida ushbu masjid imom xatibi A.Axmadaliyevni tuman bosh imom xatibi etib tayinlanganligini ma'lum qildi va kelgusidagi faoliyatida kuch-quvvat, shijoat tiladi.

Qo'shtepa tumani bosh imom xatibi A.Axmadaliyevning faoliyati davomida erishgan bir qator yutuqlari inobatga olinib faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi.

Ushbu mukofotni Farg'ona viloyati bosh imom-xatibi U.Abdullayev topshirdi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2021-02-15 00:27:10